

“HAKAMLIK SUDIDA NIZOLARNI KO’RIB CHIQISH TARTIBI VA PROTSESSUAL XUSIYATLARI”

Sattorov Tolibjon

mailto:sattorovtolibjon45@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti

Mediatsiya va nizolarni muqobil hal etish mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: *ushbu maqolada hakamlik sudida nizolarni ko’rib chiqish tartibi hamda uning protsessual xususiyatlari ilmiy-huquqiy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, hakamlik sudining huquqiy tabiati, nizolarni ko’rib chiqish bosqichlari, taraflarning protsessual huquq va majburiyatlari, shuningdek, hakamlik muhokamasining o’ziga xos jihatlari yoritib beriladi. Maqolada hakamlik sudining davlat sudlaridan farqli jihatlari, uning tezkorlik, maxfiylik va moslashuvchanlik kabi afzalliklari alohida ko’rib chiqiladi. Shu bilan birga, hakamlik sudida qaror qabul qilish tartibi hamda ularning ijro etilishi masalalariga ham e’tibor qaratiladi. Tadqiqot natijasida hakamlik sudining nizolarni samarali hal etishdagi o’rni asoslab beriladi hamda amaldagi qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan ayrim takliflar ilgari suriladi.*

Kalit so’zlar: *hakamlik sudi, nizolarni hal etish, arbitraj, protsessual tartib, hakamlik muhokamasi, taraflar huquqlari, hakamlik qarori, ijro jarayoni, muqobil nizolarni hal etish, maxfiylik, tezkorlik*

KIRISH

Hozirgi zamonaviy dunyo va iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida fuqarolik-huquqiy nizolarni samarali va tezkor hal etish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. An’anaviy davlat sudlari bilan bir qatorda nizolarni muqobil hal etish usullarining, xususan, hakamlik sudlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Hakamlik sudlari taraflarga nizolarni soddalashtirilgan tartibda, qisqa muddatlarda va ortiqcha protsessual to’siqlarsiz hal etish imkonini beradi. Nizolarni hal etishning muqobil usullari (Alternative Dispute Resolution — ADR) zamonaviy huquqshunoslikning eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan birini tashkil etmoqda. Ushbu sohada hakamlik sudi (arbitration court, третейский суд) va xalqaro tijorat arbitraji (international commercial arbitration) ikki muhim va o’zaro bog’liq institut sifatida alohida o’rin tutadi. Garchi bu ikki mexanizm turli huquqiy an’analar va sharoitlarda shakllangan bo’lsa-da, ularning mohiyatida bir qancha fundamental o’xshashliklar mavjudki, bu o’xshashliklar ularni davlat sudidan tubdan farqli bo’lgan mustaqil nizo hal qilish kategoriyasiga birlashtiradi.

Asosiy qism

Hakamlik sudi — tomonlar (jismoniy yoki yuridik shaxslar) o’rtasida yuzaga kelgan fuqarolik-huquqiy nizoni hal etish maqsadida ularning o’zaro kelishuvi asosida vaqtinchalik yoki doimiy tashkil etiladigan, davlat sudlari tizimidan mustaqil bo’lgan organ hisoblanadi. Hakamlik sudini davlat sudidan ajratib turuvchi eng muhim belgi — uning konsensual

(tomonlar kelishuviga asoslangan) tabiatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida 2006-yilda qabul qilingan «Hakamlik sudlari to'g'risida» gi Qonun va 2021-yilda kuchga kirgan yangi «Mediatsiya to'g'risida» gi Qonun mamlakatimizda muqobil nizo hal qilish mexanizmlarining huquqiy asosini mustahkamlaydi. O'zbekiston Respublikasida hakamlik sudlarining huquqiy asosi quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar tizimidan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (1996-yil);
- O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi;
- "Hakamlik sudlari to'g'risida" gi Qonun (2006-yil 16-oktyabr, № HS-18);
- "Xorijiy arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish to'g'risidagi" Nyu-York Konvensiyasi (O'zbekiston 1996-yilda qo'shilgan);
- UNCITRAL Model qonuni (1985-yil, 2006-yil tahriri);
- Toshkent Arbitraj Markazining (TAC) protsessual qoidalari (2018-yil).

Ushbu institutning huquqiy tabiati, avvalo, uning davlat sud tizimiga kirmasligi, ya'ni mustaqil va ixtiyoriy asosda faoliyat yuritishi bilan tavsiflanadi. O'zbekiston Respublikasida hakamlik sudlarining huquqiy maqomi yuqoridagi Qonun bilan belgilanadi. Mazkur qonunga muvofiq, hakamlik sudi taraflarning kelishuvi asosida tashkil etiladi va ularning nizosini ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'ladi. Bu esa hakamlik sudining asosiy belgisi sifatida uning dispozitiv xarakterga ega ekanligini, ya'ni jarayon to'liq taraflarning irodasiga bog'liqligini ko'rsatadi.

Hakamlik sudining ikki asosiy turi mavjud: doimiy faoliyat yurituvchi (institutsiyal) hakamlik sudlari va vaqtincha (ad hoc) tashkil etiladigan hakamlik sudlari. Institutsiyal hakamlik sudlari muayyan qoidalar asosida faoliyat yuritib, o'z ma'muriy apparatiga ega bo'ladi, ya'ni ular oldindan tashkil etilgan tuzilma sifatida doimiy ishlaydi, nizolarni ko'rib chiqishda aniq reglament va tartiblarga amal qiladi hamda kotibiyat, texnik va tashkiliy yordam ko'rsatadigan tizimga ega bo'ladi. Ad hoc hakamlik sudlari esa muayyan nizo yuzasidan tashkil etiladi va nizo hal etilgandan so'ng tarqatib yuboriladi, bunda tomonlar protsessual qoidalarni o'zlari belgilashi, hakamlarni tanlashi va ish yuritish tartibini mustaqil ravishda aniqlashi mumkin bo'ladi. Hakamlik sudining huquqiy tabiati bir qator asosiy belgilar orqali namoyon bo'ladi. Birinchidan, hakamlik sudi nodavlat organ sifatida davlat hokimiyati tizimiga kirmaydi, biroq u qabul qilgan qarorlar muayyan hollarda davlat tomonidan tan olinadi va ijro etiladi. Ikkinchidan, hakamlik muhokamasi taraflarning tengligi va ixtiyoriyligi tamoyillariga asoslanadi. Bu esa taraflarga nizoni ko'rib chiqish shakli, tartibi hamda hakamlarni tanlashda keng imkoniyatlar yaratadi. Hakamlik protsessining asosi — hakamlik shartnomasi (hakamlik kelishuvi) dir. U tomonlarning nizolarni hakamlik sudiga topshirish to'g'risidagi yozma kelishuvi bo'lib, ikkita shaklda mavjud bo'lishi mumkin:

- Hakamlik bandi (arbitration clause) — asosiy shartnomaning alohida bo'limi sifatida keltirilgan hakamlik shartlari;
- Mustaqil hakamlik kelishuvi (submission agreement) — allaqachon yuzaga kelgan nizo bo'yicha alohida tuzilgan shartnoma.

"Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasiga muvofiq, hakamlik shartnomasi albatta yozma shaklda tuzilishi shart. Og'zaki hakamlik kelishuvi huquqiy kuchga ega emas. Yozma shaklga quyidagilar teng hisoblanadi:

- Imzolangan hujjat shaklidagi kelishuv;
- Pochta, faks yoki elektron aloqa orqali almashilgan xatlar;
- Talab ariza va unga javobda hakamlik bandiga murojaat.

Separabillik doktrinasi bo'yicha hakamlik bandi asosiy shartnomadan mustaqil. Asosiy shartnomaning haqiqiy emasligi hakamlik bandining kuchini yo'qotmaydi. Bu muhim qoidani O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va xalqaro arbitraj amaliyoti bir xil tan oladi. Hakamlik shartnomasining majburiy elementlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Hakamlik sudiga murojaat qilish to'g'risidagi aniq ifoda;
2. Nizolarning doirasi (qaysi turdagi nizolar topshirilishi);
3. Hakamlik o'tkaziladigan joy (o'rin);
4. Hakamlar soni va ularni tayinlash tartibi;
5. Qo'llaniladigan qoidalar tizimi (institutsiyal qoidalar yoki ad hoc);
6. Protsessda qo'llaniladigan til;
7. Qo'llaniladigan moddiy huquq (ixtiyoriy, lekin tavsiya etiladi).

Hakamlik sudining sudyalari haqida ham ozgina tahlil qilsak, ularga ma'lum talablar mavjud:

- Muqobil talabi: kamida 25 yoshga to'lgan bo'lishi (O'zR Qonuni 10-modda);
- Mustaqillik va xolislik: tomonlar yoki nizo bilan manfaatlar to'qnashuvi bo'lmasligi;
- Kompetentlik: nizo predmeti bo'yicha tegishli bilim va tajribaga ega bo'lishi;
- Fuqarolik layoqati: harakatga layoqatsiz deb topilmagan bo'lishi;
- Jinoatchilik tarixi: jinoiy javobgarlikka tortilmagan bo'lishi.

Hakam mustaqillik va xolislik talablariga javob berishi lozim. Agar hakamning tayinlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi holat mavjud bo'lsa, hakam buni darhol oshkor qilishi va, zarur bo'lsa, o'zi rad etilishini e'lon qilishi shart. Tomonlar ham hakamni rad etish huquqiga ega. Hakamlik sudida nizolarni ko'rib chiqish tartibi Qonun bilan tartibga solinadi hamda u bir necha izchil bosqichlardan iborat. Avvalo, taraflar o'rtasida hakamlik bitimi tuziladi, bu esa nizoni hakamlik sudida ko'rib chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Keyingi bosqichda hakamlik sudi tarkibi shakllantiriladi, ya'ni taraflar hakamlarni tanlaydi yoki tayinlaydi. Ushbu jarayon hakamlik muhokamasining mustaqilligi va xolisligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan so'ng ish yuritish va muhokama jarayoni boshlanadi. Bu bosqichda taraflar o'z dalillarini taqdim etadi, huquqiy pozitsiyalarini asoslaydi hamda nizoning mohiyati yuzasidan fikr bildiradi. Hakamlik muhokamasining o'ziga xos jihati shundaki, unda qat'iy protsessual formalar mavjud emas, bu esa ishni tezkor va samarali ko'rib chiqish imkonini beradi. Muhokama yakunida hakamlik sudi tomonidan hal qiluv qarori qabul qilinadi va u taraflar uchun majburiy hisoblanadi. Qaror ixtiyoriy ravishda bajarilmagan taqdirda esa davlat sudlari orqali majburiy ijro etilishi mumkin. Hakamlik qarori qoida tariqasida yakuniy va murojaat qilib bo'lmaydigan hisoblanadi. Apellyatsiya tartibida qarorni qayta ko'rib chiqish

imkoni yo'q. Biroq hakamlik qarorini bekor qilish faqatgina muayyan asoslar mavjud bo'lganda davlat sudiga murojaat qilish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Hakamlik sudlarini qarorini bekor qilish ("Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonun 43-modda)

1. Hakamlik shartnomasi haqiqiy emas;
2. Tomon hakamlar tayinlanishi haqida tegishli tartibda xabardor qilinmagan;
3. Tomon o'z pozitsiyasini bayon etish imkoniyatidan mahrum qilingan;
4. Hakamlik sudi hakamlik shartnomasi doirasidan chiqib qaror qabul qilgan;
5. Hakamlar tarkibi yoki protsessual tartib tomonlarning kelishuviga zid kelgan;
6. Nizo arbitraj bo'lishi mumkin bo'lmagan sohalarga oid;
7. Qaror jamoat tartibiga zid.

Hakamlik sudining protsessual xususiyatlari bir qator tamoyillar orqali namoyon bo'ladi. Jumladan, dispozitivlik tamoyiliga ko'ra, taraflar jarayonni mustaqil ravishda belgilash huquqiga ega. Maxfiylik tamoyili esa muhokamaning yopiq tarzda o'tkazilishini ta'minlab, tijorat sirlarini himoya qiladi. Shuningdek, tezkorlik va moslashuvchanlik hakamlik sudining muhim ustunliklari hisoblanadi. Shu jihatlar hakamlik sudini nizolarni hal etishning samarali va zamonaviy mexanizmi sifatida e'tirof etish imkonini beradi. O'zbekistonda hakamlik sudlari rivojlanishida bir qancha muammolar mavjud:

- Malakali hakamlar yetishmasligi: O'zbekistonda xalqaro darajadagi arbitrlar soni hali ham cheklangan;
- Sud nazoratining ortiqcha kengayishi: Ba'zi hollarda davlat sudlarining hakamlik qarorlariga aralashishi normadan oshib ketmoqda;
- Konfidentsiallik kafolatlarining zaif bo'lishi: Amaliyotda maxfiylik rejimini ta'minlash muammolari mavjud;
- Xabardorlik darajasining pastligi: Biznes sub'ektlari hakamlik sudidan foydalanish imkoniyatlaridan yetarlicha xabardor emas.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hakamlik sudida nizolarni ko'rib chiqish tartibi va protsessual xususiyatlari tahlili bir qancha muhim xulosalar chiqarish imkonini beradi. Hakamlik protsessi o'zining konsensual tabiati, moslashuvchanlik darajasi, konfidentsiallik kafolatlari va ixtisoslashgan hakamlar jalb etish imkoniyatlari bilan davlat sud protsessidan sezilarli darajada farq qiladi va ko'p hollarda undan ustunlik qiladi. Hakamlik protsessining asosiy bosqichlari — hakamlik shartnomasini tuzish, talab arizasini topshirish, hakamlar tarkibini shakllantirish, eshituv o'tkazish va qaror qabul qilish — har biri o'ziga xos protsessual talablarga ega. Bu talablar tomonlarga protsessning barqarorligini va natijaning bashorat qilinishini ta'minlaydi. O'zbekiston qonunchiligi 2006-yildagi asosiy Qonun va keyingi islohotlar orqali xalqaro standartlarga yaqinlashmoqda. Biroq hakamlar malakasini oshirish, qonunchilikni UNCITRAL Model qonuniga to'liqroq moslashtirish va hakamlik amaliyotini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar zarur. Umuman olganda, hakamlik sudi zamonaviy iqtisodiy munosabatlarda nizolarni hal etishning eng samarali muqobil

mexanizmlaridan biri bo'lib, uning protsessual tartibini puxta bilish har bir huquqshunos va tadbirkor uchun muhim amaliy zarurat hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi.
4. O'zbekiston Respublikasi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonuni.
5. Mustaqil davlatlar tajribasida arbitraj sudlari faoliyati bo'yicha ilmiy maqolalar (Google Scholar bazasi materiallari).